UDK: 811.11+811.161.1 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a80**

EVFEMIZMLAR TASNIFLARINING TAHLILI

АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИЙ ЭВФЕМИЗМОВ

ANALYSIS OF CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS

Yusupova Muntoza Baxtiyorovna[1]

[1]**Yusupova Muntoza Baxtiyorovna** − FarDU doktoranti.

Annotatsiya

Evfemizmlar tabulashgan so‘zlarning o‘rnini bosa oladigan til vositalari sifatida tilshunoslarning e'tiborini tortib, turli aspektdan tahlilga tortilgan. Mazkur maqolada evfemizmlarning xususiyati va ularning tasniflash masalasi atroflicha talqin etiladi. Evfemizmlarning turli sohalarda qo‘llanishi hamda turli so‘z yasalish turlari asosida vujudga kelishi tahlil etiladi. Ushbu jihatlarni e'tiborga olgan xolda, evfemizmlarning ta'rif-tavsifini ifodalovchi turli tasniflar keltiriladi. Evfemik birliklarning tasnifi ularning tabiatini to‘liq namoyon etilishiga turtki bo‘ladi.

Аннотация

Эвфемизмы, привлекая внимание лингвистов как особые единицы языка, использующиеся вместо табуированных слов, были всесторонне изучены в разных аспектах. В данной статье освещаются характеристика эвфемизмов и вопросы их классификаций. Будучи многогранным явлением, эвфемия используется в разных сферах и образуется разными словообразованиями. Исходя из этого приводится ряд классификаций эвфемизмов, которые выявляют характер использования данных единиц языка. Классификация эвфемизмов стимулирует глубокому изучению природы данных лингвистических единиц.

Abstract

Drawing the attention of linguists as the specific language units, used instead of taboo words, euphemism were studied in different aspects. The present article elucidates the issues of characteristics of euphemisms and their classification. As a multifaceted phenomenon euphemisms are used in various spheres and formed according to different types of word formation. Considering it, there is a range of classifications of euphemisms, which reveal the character of using these language units. The classification of euphemisms makes an impetus to deeply analyzing the nature of euphemisms.

Kalit so‘zlar: *evfemizm, tabu, tasnif, ta'rif-tavsif, soha, muloyim ifodalash, konnotatsiya.*

Ключевые слова: *эвфемизм, табу, классификация, характеристика, сфера, мягкое употребление, коннотация.*

Key words*: euphemism, taboo, classification, character, sphere, mild expression, connotation.*

KIRISH

So‘nggi yillarda folklor masalasi tilshunoslarning e'tiborini tortgan. Folklor etnik va milliy mentalitetni, ma'lum bir millatning qadimiy davrlardan boshlab hozirgi paytgacha tarixiy, ijtimoiy, madaniy masalalarini, oilaviy hayotni, xalqning ta'rif-tavsifini o‘z ichiga olgan. Folklorning tadqiqi bevosita til tadqiqi bilan bog‘lanib kelmoqda. Evfemizmlar folklorning bir qismi sifatida bizga qadimiy davrlardan yetib kelgan. Mazkur maqolada evfemizm tushunchasining talqini ifodalanadi hamda evfemik birliklarning tasniflash masalasi atroflicha o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX asr ohirida va shuningdek, XXI asrda evfemizmlar masalasi keng tadqiq qilinib, diaxron va sinxron aspektda o‘rganilgan. Evfemizmlar leksik tizim sifatida J.Eyton, L.P.Krisin, V.P.Moskvin, A.P.Senichkina tomonidan keng tadqiq etilgan. Evfemizmlarning masalasi va ularning siyosiy diskursda, e'lon matnlarida, folklor hamda dinniy matnlarida qo‘llanishi qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, evfemizmlarning masalasi S.Vidlak, B.A.Larin, K.Allan, A.A.Reformatskiy, Dj.Niman, K.Xem, V.I.Zabotkinalarning ilmiy asar va tadqiqotlarida ham o‘z ifodasini topgan.

Evfemizmlarning xususiyatini, qo‘llash maqsadi va ularning tasniflash masalasini tadqiq qilish jarayonida qator ilmiy asar va maqolalar o‘rganilib chiqildi. Maqolada analitik va tasvirlash metodlardan foydalanildi.

NATIJA VA UNING TAHLILI

Qator tadqiqotchi va tilshunoslar evfemizm xodisasiga turlicha izoh keltiradilar. Masalan, N.S.Arapova “Lingvistik Entsiklopedik Lug‘ati”da evfemizmlarni qo‘pol, jamiyatda aytilmaydigan

so‘zlarni o‘rnini bosadigan birliklar sifatida izohlaydi. Evfemizmlarni emotsional neytral so‘zlar va so‘z birikmalar sifatida talqin etadi [2].

A.P.Yevgeneva evfemizmlarni ifoda eta bo‘lmaydigan so‘zlar o‘rnida qo‘llanadigan so‘z va iboralar deb, ta'riflaydi [9]. O.S.Axmanova evfemizmlarni ma'lum bir holat yoki hodisaning muloyim ifodasi deb izohlaydi [3].

Ye.P.Senichkina evfemizmlarning salbiy konnotatsiyani yo‘qotish hamda mazmuniy betaraflikni ko‘rsatish uchun qo‘llanishini ta'kidlaydi [8].

K.Silver va Dj.Niman evfemiya ma'lum lisoniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatlari bilan tavsiflanishini, evfemizmlarda ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlar, millat va alohida individ tafakkurining o‘ziga xosligi mujasamlanishini ta'kidlagan. Evfemizmlar haqiqat niqobi sifatida qo‘llanishini tasdiqlagan [7].

A.M.Kattsev evfemizmlarni 10 yirik guruhlarga bo‘lib, har qaysi guruh evfemik birliklarning o‘zgacha xususiyatlarini ko‘rsatishini ifodalaydi: ilohiy kuchlarni namoyon etuvchi evfemik birliklar; o‘lim va kasalliklarni ifodalovchi evfemik birliklar; gender bilan bog‘liq evfemik birliklar; kambag‘allikni ifodalovchi evfemik birliklar; ma'lum kasblarni anglatuvchi evfemik birliklar; ruhiy va jismoniy zaiflikni ifodalovchi evfemik birliklar; kiyim ifodalovchi evfemik birliklar[5].

B.A.Larin evfemik birliklarni tasniflab, ularni grammatik va leksik strukturasiga asosan, metodologik tabiatiga asosan, so‘z ma'nosining o‘zgarishiga asosan, so‘z shakliga asosan ajratib chiqadi. Strukturasiga asosan evfemik birliklar so‘z, ibora, gap bo‘lishi mumkinligi; so‘z ma'nosining o‘zgarishiga asosan metafora, metonimiya vujudga kelishini; so‘z shakliga asosan konversiya, affiksatsiya, abbreviatura va boshqa so‘z yasalish turlari bo‘yicha namoyon bo‘lishini ta'kidlaydi[6].

V.A.Avrorin evfemizmlarning qo‘llanilishini 12 muloqot jarayonida ko‘rsatib o‘tgan. Xususan, evfemizmlar xo‘jalik ishlari, siyosiy jarayon, kundalik turmush, ta'lim sohasi, badiiy adabiyot, jamoaviy muloqot, madaniyat va ma'naviyat sohasi, halq og‘zaki ijodi, fan, ishlab chiqarish, shaxsiy o‘zaro xat yozishuv, diniy marosimlar ifodasida rang-barangligi bilan ajralib turadi[1].

S.Jo‘raxonova evfemizmlarning tahlil jarayonida ularni quyidagi parametrlari bo‘yicha tasniflaydi: tug‘ilish bilan bog‘liq tushunchalar asosidagi evfemik birliklar; nikoh bilan bog‘liq tushunchalar ostida birlashgan evfemik birliklar; motam bilan bog‘liq evfemik birliklar; farzand va ota-ona bilan bog‘liq bo‘lgan evfemik birliklar.

X.Ismoilova va Z.Xatamova evfemik birliklarning badiiy asarlarda qo‘llanishiga e'tibor berib, ularning tasnifini taklif etadilar. Jumladan, ularning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlariga o‘z e'tiborlarini qaratib, bir qator guruhlarini ajratib chiqqan [4].

XULOSA

Evfemizmlarning tadqiqida ularning tasnif masalasiga turlicha yondashish mumkin. Evfemizmlarning tasnifi ularning mohiyatini atfrolicha o‘rganishga, evfemizmlarning tizimiga turli jihatdan yondashishga turtki beradi. Evfemizmlarning tasnifida lingvistik va ekstralingvistik omillarni ham e'tiborga olish evfemizmlarning bevosita millat qadriyatlari, individ va millat tafakkuri bilan bog‘liqligini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR

1. Avrorin V.A. Problemy izucheniya funktsional'noy storony yazyka: K voprosu o predmete sotsiolingvistiki. [Problems of studying the functional aspect of language: On the subject of sociolinguistics.]. St. Petersburg: Nauka.1975.
2. Arapova N.S.“Evfemizmi”, Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar, M.,1990.
3. Axmanova, O. S. Slovar lingvisticheskix terminov[Tekst] / O. S. Axmanova. – M. Sovetskaya entsiklopedia, 1969. – 608 s.
4. Ismoilova X., Xatamova Z. Classification and types of euphemisms//Journal INX –A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.Vol. 6, 2020.
5. Katsev A.M. Evfemizmi v sovremennom angliyskom yazike. –Leningrad: Nauka, 1977. – 65s.
6. Larin B.A. Ob evfemizmax // Larin B.A. Istoriya russkogo yazika I obsheye yazikoznaniye/ B.A.Larin. – M.: Prosvesheniye, 1977. – S. 101–114
7. Neaman J. S. The Wordsworth Book of Euphemism / J. S. Neaman, C. G. Silver. – London: Wordsworth Editions LTD, 1995. – 310 p.
8. Senichkina Ye.P., Slovar evfemizmov russkogo yazika, M., 2008.
9. Yevgenyeva, A.P. Slovar russkogo yazika v chetiryox tomax [Tekst] / A. P. vgenyeva. – T. 4. – M.: Russkiy yazik, 1988. – 800 s.